

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



TA‘LIM SIFATI NAZORATI BO‘LIMI TO‘G‘RISIDA

N I Z O M

Toshkent – 2025



Toshkent davlat sharqshunoslik
universitet rektori G.Sh. Rixsiyeva

4-oktabr 2025 y.

KIRISH

Ushbu Nizom Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (keyingi o‘rinlarda – TDSHU) Ta’lim sifati nazorati bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Bo‘lim) faoliyatining maqsadi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va mas’uliyatini, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Nizom TDSHUNing 2024-2027 yillarga mo‘ljallangan transformatsiya konsepsiyasini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizom universitetning TOP-300 xalqaro reytinglariga kirish, konsepsiyani joriy etish va Markaziy Osiyoda sharqshunoslik sohasida ta’lim “xab”iga aylanish strategik maqsadlariga erishishda ta’lim sifati ta’minlash tizimining huquqiy asosini tashkil etadi.

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Nizomning qo‘llanilish doirasi

Ushbu Nizom Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim faoliyatiga nisbatan qo‘llaniladi. Nizom ta’lim sifati ta’minlashning tamoyillari, siyosati, tartib-qoidalari, jarayonlari, standartlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi.

1.2. Nizomning huquqiy asoslari

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4680-sonli Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston 2030

strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, inson kapitalini kuchaytirish, yoshlar masalalarida turli yig'ish va selektrlardagi nutqlari va ularda belgilangan vazifalar; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 200-son qarori 2020-yil 27-oktyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 655-son qarori; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yig'ilishining 2023-yil 10-fevraldagi 2-son bayoni 6.3-bandi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 27-martdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarida Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 72-sonli buyrug'i hamda Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 4-bandiga asoslangan holda ishlab chiqildi. Ushbu nizom Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ta'lim sifati nazorati bo'limini tashkil etish tartibi va faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

1.3. Universitetning strategik maqsadlari va ta'lim sifatini ta'minlash

TDSHU Transformatsiya konsepsiyasiga muvofiq quyidagi strategik maqsadlarni belgilagan: xalqaro standartlarga mos sharqshunoslik sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, fan rivojlanishini tezlashtirish va professor-o'qituvchilar salohiyati va pedagogik mahoratini doimiy oshirish, talabalarni sharq qadriyatlari asosida tarbiyalash, TOP-300 xalqaro reytinglariga (QS, THE) kirish orqali ta'lim jozibadorligini oshirish, universitetni "Yangi O'zbekiston" uchun zamonaviy ta'lim-ilmiy muassasaga aylantirish va Markaziy Osiyoda sharqshunoslik sohasidagi kadrlarni tayyorlash bo'yicha ta'lim "xab"iga aylanish. Ta'lim sifati nazorati bo'limi ushbu strategik maqsadlarga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

1.4. Ta'lim sifatini ta'minlash tizimi

Ta'lim sifatini ta'minlash tizimi TDSHU tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mexanizmlar, tartib-qoidalar va jarayonlar majmuasi bo'lib, ular universitetning barcha funksiyalari doirasida muntazam qo'llaniladi.

1.5. Ta'lim sifatini ta'minlash tizimining asosiy maqsadi

Ta'lim sifati nazorati bo'limining asosiy maqsadi TDSHU jamoasida doimiy takomillashtirish madaniyatini shakllantirish va sifatni yaxshilashdir. Bunga erishish uchun sifatni yaxshilash bo'yicha faoliyatni qo'llab-quvvatlash, universitet

bo'linmalari va xodimlarining faoliyatini TDSHU missiyasi va strategik rivojlanish maqsadlariga muvofiqligini ta'minlash, TDSHU professor-o'qituvchilarining dars sifatini ta'minlash va yaxshilash bo'yicha mas'uliyatini oshirish, sifat talablariga rioya etilishini ta'minlash, ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiqligini nazorat qilish, TDSHU faoliyatidagi muammolar va kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, jamoatchilikni yuqori sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilishiga ishontirish, bitiruvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini mehnat bozori talablariga mos kelishini ta'minlash hamda xalqaro akkreditatsiya va reyting talablariga muvofiqlikni ta'minlash orqali erishiladi.

1.6. Ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy tamoyillari

Ta'lim sifatini ta'minlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Mustaqillik – sifatni baholash jarayonlari tashqi ta'sirlardan xoli holda amalga oshiriladi;
- Hisobdorlik – barcha faoliyat natijalari bo'yicha hisobot beriladi;
- Shaffoflik – jarayonlar va natijalar ommaga ochiq;
- Ob'ektivlik – baholash mezonlari aniq va bir xilda qo'llaniladi;
- Davriylik va izchillik – baholash muntazam o'tkaziladi;
- Doimiy takomillashtirish – sifat sikli qo'llaniladi;
- Inklyuzivlik – barcha manfaatdor tomonlar jalb etiladi;
- Xalqarolashtirish – xalqaro standartlar va tajribalar qo'llaniladi;
- Raqamlashtirish – zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalaniladi;
- Kasbiylik – yuqori malakali mutaxassislar jalb etiladi;

1.7. Asosiy tushunchalar

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- Davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar;
- Ichki (o'z-o'zini) baholash – belgilangan mezonlar asosida tashkilot faoliyatini baholash, tahlil qilish va yaxshilash choralari ko'rish jarayoni;
- Akkreditatsiya – ta'lim dasturlarining davlat standartlari va talablariga muvofiqligini baholashning davlat nazoratining asosiy shakli;
- Xalqaro akkreditatsiya – ta'lim dasturlarining xalqaro agentliklar tomonidan baholanishi;
- Manfaatdor tomonlar – ta'lim muassasasi faoliyatidan manfaatdor barcha tomonlar (rahbariyat, professor-o'qituvchilar, talabalar, ish beruvchilar, jamiyat);
- Sifat auditori – sifatni ta'minlash faoliyati va erishilgan natijalarning rejalashtirilgan choralarga muvofiqligini tekshirish;
- KPI (Key Performance Indicators) – asosiy faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari;
- Sifat monitoringi – ta'lim sifati belgilangan standartlarga javob berishini aniqlash uchun sifat ko'rsatkichlarini tizimli yig'ish va tahlil qilish;

- Sifat sikli – faoliyatni yaxshilash uchun qo‘llaniladigan takrorlanuvchi to‘rt bosqichli jarayon (Rejalashtirish-Bajarish-Tekshirish-Ta’sir ko‘rsatish)
- SWOT tahlili – tashkilotning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflarini tahlil qilish;
- HEMIS – oliy ta’lim axborot-boshqaruv tizimi;
- APS – akademik profil tizimi;

II BOB. BO‘LIMNING TASHKILY TUZILMASI VA BOSHQARUVI

2.1. Bo‘limning tashkiliy maqomi

Ta’lim sifati nazorati bo‘limi TDSHU tashkiliy tuzilmasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo‘lim bevosita Universitet rektoriga bo‘ysunadi. Prorektor, dekanlar va boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan Bo‘lim faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va ta’lim sifati ta’minlash departamenti bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi.

2.2. Bo‘limning tarkibiy tuzilmasi

Bo‘lim quyidagi shtat birliklaridan iborat:

- Bo‘lim boshlig‘i – 1.
- Bosh mutaxassis – 1.
- Bosh mutaxassis – 1.

2.3. Ta’lim sifati boshqarish tizimi

TDSHU ta’lim sifati ta’minlash jarayonlarini boshqarish, amalga oshirish va ta’minlash uchun uch bosqichli tizimga ega. Birinchi bosqichda, TDSHU Kengashi sifati ta’minlash siyosati, tartib-qoidalari, standartlari va mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bilan shug‘ullanadi. Ikkinchi bosqichda, Ta’lim sifati nazorati bo‘limi sifati ta’minlash faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlash va nazorat qilish hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi. Uchinchi bosqichda esa institutlar, fakultetlar va boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar o‘z faoliyat doirasida sifati ta’minlash siyosatini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi.

III BOB. BO‘LIMNING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI

3.1. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

Ta’lim sifati nazorati bo‘limi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Universitetda kadrlar tayyorlash sifati nazorat qilish va monitoring olib borishdir. Bu vazifa doirasida talabalarning bilimlarini davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini chuqur o‘rganish va har tomonlama tahlil qilish amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘quv jarayoni sifati kompleks baholash hamda bitiruvchilar bilim darajasini muntazam ravishda monitoring qilish jarayonlari tashkil etiladi.

2. Ta'lim sifatini ta'minlashga layoqatli professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirishga qaratilgan. Bu doirada salohiyatli o'qituvchilarni tanlash va ishga qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etish, ularning kasbiy mahorat va malakasini oshirish uchun samarali mexanizmlarni yaratish, shuningdek, shaffof va ob'ektiv baholash tizimini joriy qilish amalga oshiriladi.

3. Professor-o'qituvchilarning dars o'tish sifatini muntazam tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda pedagogik mahoratni har tomonlama baholash, KPI (Key Performance Indicators) ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish, talabalar tomonidan o'qituvchilarni baholash natijalarini chuqur tahlil qilish va innovatsion o'qitish metodikalarini qo'llashni rag'batlantirish ishlari olib boriladi.

4. Universitetning ichki baholashini professional darajada tashkil etishdan iborat. Bu vazifa doirasida o'z-o'zini baholash jarayonlarini puxta rejalashtirish va o'tkazish, ichki auditoriyalarni muntazam tashkil etish, hamda har tomonlama baholash hisobotlarini professional darajada tayyorlash amalga oshiriladi.

5. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha samarali choralar ko'rishga qaratilgan. Bu doirada aniqlangan muammolar bo'yicha takomillashtirish choralari rejasini ishlab chiqish, choralar bajarilishini muntazam monitoring qilish va ularning samaradorligini ob'ektiv baholash jarayonlari amalga oshiriladi.

6. O'quv jarayonini me'yoriy huquqiy hujjatlar talablari asosida to'g'ri tashkil etilganligini nazorat qilishdan iborat. Bu vazifa doirasida o'quv rejalari va dasturlarining davlat standartlariga to'liq muvofiqligini tekshirish, fan dasturlarining kasbiy standartlarga mosligini ta'minlash va o'quv yuklamalarining normativlarga muvofiqligini doimiy nazorat qilish amalga oshiriladi.

7. HEMIS, MOODLE, APS tizimlaridan foydalanish samaradorligini o'rganish va tahlil qilishga bag'ishlangan. Bu jarayonda raqamli platformalarga ma'lumotlar kiritish to'liqligini nazorat qilish, elektron ta'lim kontenti sifatini professional darajada baholash va tizimlardan optimal foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish amalga oshiriladi.

8. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarining kasbiy standartlar va mehnat bozori talablariga muvofiqligini tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu doirada ish beruvchilar bilan samarali hamkorlikda malaka talablarini doimiy yangilash, o'quv dasturlariga soha yangiliklari va innovatsiyalarini o'z vaqtida kiritish, shuningdek bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashishini muntazam monitoring qilish ishlari olib boriladi.

9. Mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilganligini o'rganish va tahlil qilishdan iborat. Bu vazifa doirasida mustaqil ishlar uchun yo'riqnoma va uslubiy ko'rsatmalar mavjudligini tekshirish, talabalar yuklamasining shakllantirishini ob'ektiv baholash va mustaqil ta'lim platformalari samaradorligini chuqur o'rganish jarayonlari amalga oshiriladi.

10. Sun'iy intellekt texnologiyalarini fanlarga integratsiyalash jarayonini nazorat qilishdan iborat. Bu doirada AI vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanishni qo'llab-quvvatlash, ChatGPT, Gemini va boshqa AI platformalarining ta'limda etik

qo'llanilishini ta'minlash, hamda professor-o'qituvchilarning AI kompetensiyalarini oshirish ishlari olib boriladi.

11. Talabalar, ish beruvchilar va bitiruvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va natijalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu vazifa doirasida talabalar qoniqishini o'rganish, ish beruvchilar fikrlarini muntazam yig'ish va bitiruvchilar karyerasini monitoring qilish jarayonlari professional darajada amalga oshiriladi.

12. Professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini va fanfarga innovatsiyalar kiritilganligini o'rganishdan iborat. Bu jarayonda malaka oshirish natijalarini doimiy monitoring qilish, yangi o'qitish metodlarini joriy etishni rag'batlantirish va xalqaro hamkorlik hamda mobillikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshiriladi.

13. Attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda faol ishtirok etishga qaratilgan. Bu doirada professor-o'qituvchilarni attestatsiyalashda ishtirok etish, fakultet va kafedralar faoliyatini attestatsiyalashda faol rol o'ynash, shuningdek ilmiy darajalarni berish jarayonlarida professional ishtirok etish amalga oshiriladi.

14. Raqamli platformalarni (MOODLE, HEMIS, APS) optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu vazifa doirasida tizimlar samaradorligini har tomonlama tahlil qilish, foydalanuvchilar tajribasini chuqur o'rganish va amaliy yaxshilash takliflarini puxta taqdim etish jarayonlari amalga oshiriladi.

15. KPI tizimini joriy etish va monitoring qilishga bag'ishlangan. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar uchun KPI ko'rsatkichlarini professional darajada ishlab chiqish, KPI natijalarini muntazam to'plash va chuqur tahlil qilish, shuningdek bu tizimni rag'batlantirish tizimi bilan samarali bog'lash ishlari amalga oshiriladi.

IV BOB. TA'LIM SIFATI STANDARTLARI VA MEZONLARI

4.1. Asosiy manfaatdor tomonlarning jalb etilishi

Tashkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti (TDSHU) o'z boshqaruvida ichki (professor-o'qituvchilar, talabalar, xodimlar) va tashqi (ish beruvchilar, bitiruvchilar) manfaatdor tomonlarni jalb etadi. Bu jarayonda, ichki manfaatdor tomonlarning keng ishtiroki ta'minlanadi, tashqi manfaatdor tomonlar rivojlanishga jalb etiladi, ish beruvchilar, ta'lim xizmatlari iste'molchilari va talabalar o'zini o'zi boshqarish organlarida faol ishtirok etishadi, shuningdek, bitiruvchilar tarmog'ini yaratish va dasturlarini ishga tushirish orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadilar. Zamonaviy kadrlar ehtiyojidan kelib chiqib, ta'lim dasturiga ish beruvchilar va sobiq bitiruvchilar takliflari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib boriladi.

4.2. Masofaviy ta'lim (onlayn ta'lim)

Ta'lim sifati nazorati bo'limi masofaviy ta'lim (onlayn ta'lim) sifatini ta'minlash uchun xalqaro tajribaga asoslangan kompleks yondashuvni qo'llaydi. Bunda birinchi navbatda masofaviy ta'limga oid aniq siyosat va standartlar ishlab chiqiladi hamda ularni universitetning umumiy ta'lim sifati tizimi bilan

muvofiglashtiriladi. Texnik jihatdan barqaror va xavfsiz infratuzilmalar (LMS: Moodle/HEMIS integratsiyasi, serverlar ishonchliligi, ma'lumotlarni himoya qilish siyosati) bilan ta'minlanganligi nazorat qilinadi; Talabalar uchun masofaviy ta'limda doimiy akademik va texnik qo'llab-quvvatlash (tutorlar, konsultatsiyalar, texnik yordam) tashkil etiladi, shuningdek, o'quv jarayonini monitoring qilish va o'rganish tahlili orqali ishtirokchilik, faoliyat va o'rganish natijalari baholanadi.

Baholash tizimi masofaviy sharoitga moslashtirilgan: o'qituvchilar uchun ishonchli test dizayni, loyihaviy va yozma ishlar, ochiq va shaffof mezonlar, zarur hollarda offline uchrashuv siyosati va intellektual soxta usullarga qarshi texnik va tashkiliy choralar joriy etiladi. O'qituvchilarning malakasini oshirish doimiy ravishda amalga oshiriladi – masofaviy ta'lim metodikalari, LMS platformalaridan samarali foydalanish, baholashning adolatliligi va AI texnologiyalaridan etik foydalanish bo'yicha treninglar o'tkaziladi. Ichki sifatni baholash jarayonlari muntazam takrorlanadi va natijalar asosida doimiy takomillashtirish choralari rejalashtiriladi; shuningdek, bitiruvchilar va ish beruvchilar fikri, xalqaro akkreditatsiya talablari va taqqoslanadigan indikatorlar hisobga olinadi.

V BOB. PROFESSOR-O'QITUVCHILAR FAOLIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI (KPI)

5.1. Ekspertlar guruhining tashkil etilishi va faoliyati

TSN bo'limi tomonidan professor-o'qituvchilar faoliyatini ob'ektiv va professional baholash, darslar sifatini monitoring qilish, o'quv jarayonida eng yaxshi tajribalarni aniqlash va tarqatish maqsadida Ekspertlar Guruhi tashkil etiladi. Ekspertlar Guruhi universitetning tajribali, zamonaviy bilimlarga ega, ilmiy darajali professor-o'qituvchilaridan 10 nafar a'zoni o'z ichiga oladi. Guruh a'zolari Universitet Kengashi tomonidan har o'quv yili boshida ma'qullanadi va rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Ekspertlar Guruhiga quyidagi mezonlarga javob beradigan professor-o'qituvchilar tanlanadi:

1. Ilmiy daraja va unvon: Fan doktori (DSc), falsafa doktori (PhD), dotsent yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lishi;
2. Pedagogik tajriba: Kamida 5 yil oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilik tajribasiga ega bo'lishi;
3. Ilmiy faollik: Oxirgi 5 yil ichida Scopus yoki Web of Science bazalariga kiritilgan jurnallarda kamida 2 ta maqola chop etgan bo'lishi;
4. Zamonaviy metodlar: Innovatsion o'qitish metodlari, raqamli texnologiyalar va AI vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
5. Xalqaro tajriba: Xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, xalqaro hamkorlik tajribasiga ega bo'lishi;
6. KPI ko'rsatkichlari: Oxirgi o'quv yilida 85% dan yuqori KPI natijalariga ega bo'lishi;
7. Etik normalar: Professional va akademik etika qoidalariga qat'iy rioya qilishi.

Har bir ekspert bir o'quv yilida kamida 10 ta dars (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar)ni kuzatadi. Darslar oldindan rejalashtirilgan grafik asosida yoki kutilmagan holda (spot check) kuzatilishi mumkin. Yangi ishga qabul qilingan professor-o'qituvchilar sinov darslar orqali ishga qabul qilinadi va darslari 2-3 marta tekshirilishi mumkin [1-ilova].

5.2 KPI tizimining maqsadi va ahamiyati

Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholash asosiy ko'rsatkichlari (KPI) tizimi quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini ob'ektiv baholash;
- ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga rag'batlantirish;
- xalqaro hamkorlik va tadqiqot faoliyatini kuchaytirish;
- akademik va ma'muriy samaradorlikni oshirish;
- moliyaviy rag'batlantirish tizimini asoslash;
- TOP-300 reyting maqsadlariga erishishga yordam berish.

5.2.1 KPI baholash sohalari

Professor-o'qituvchilar faoliyati universitetning strategik maqsadlari va ta'lim-sifat talablariga muvofiq quyidagi asosiy sohalarda baholanadi. Har bir soha uchun sifat va miqdor ko'rsatkichlari (KPI) aniqlanib, ular son va sifat mezonlari orqali o'lchanadi hamda yillik hisobotlar va daliliy hujjatlar (o'quv dasturlari, chop etilgan maqolalar, grant shartnomalari, xalqaro hamkorlik bitimlari, talabalar baholari va h.k.) asosida tasdiqlanadi.

Shuningdek, kafedra, fakultet va universitet darajasidagi ma'muriy vazifalarni, sifatni ta'minlash va akreditatsiya jarayonlaridagi ishtirokni, ichki monitoring va hisobotlarni vaqtida va sifatli taqdim etishni, mehnat intizomi, o'quv-uslubiy va ilmiy tadbirlarni tashkil etishdagi faol ishtirokni, tarkibga kiritilgan boshqa vazifalarni (komissiyalar, attestsatsiya, mentorlik, mehnat bozoriga yo'naltirish) bajarishni o'z ichiga oladi.

Baholash jarayoni indikatorlarni aniqlash, ularga vazn belgilash va har yili qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi; KPIlar belgilangan ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi, baholash natijalari asosida rag'batlantirish, malaka oshirish rejalari va korreksion choralar belgilanadi. KPI monitoringi shaffof, ob'ektiv va inklyuziv usulda amalga oshiriladi, natijalar professor-o'qituvchilar bilan muhokama qilinadi hamda universitetning strategik yo'l xaritasi va xalqaro me'zonlarga muvofiq moslashtiriladi.

5.3. Manfaatdor tomonlardan so'rovnomalar o'tkazish.

TSN Bo'limi ta'lim sifatini kompleks baholash, manfaatdor tomonlarning fikr va takliflarini muntazam o'rganish maqsadida turli guruh va shaxslar o'rtasida tizimli so'rovnomalar o'tkazadi. So'rovnomalar natijasi universitet faoliyatini takomillashtirish, strategik qarorlar qabul qilish va sifat standartlarini ta'minlash uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi.

So'rovnoma Ishtirokchilari Guruhlari: 1. Talabalar (Studentlar) 2. Professor-o'qituvchilar 3. Bitiruvchilar 4. Ish beruvchilar 5. Ota-onalar 6. Ma'muriy xodimlar

So'rovnomalarning mazmuni, davri, kimlar orasida o'tkazilishi, ma'lumotlar qanday tartibda o'rganilishi va natijalarining jamoatchilikka e'lon qilinish usullari haqida 2-ilovada.

VI BOB. O'Z-O'ZINI BAHOLASH

6.1. O'z-o'zini baholash tushunchasi va ahamiyati

O'z-o'zini baholash – TDSHU oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim faoliyatini ichki baholash bo'lib, sifatni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini baholash O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020), xalqaro akkreditatsiya talablari va ushbu Nizom asosida amalga oshiriladi.

6.2. O'z-o'zini baholashning asosiy maqsadi

O'z-o'zini baholashning asosiy maqsadi – TDSHU o'zining kuchli tomonlari va yaxshilash kerak bo'lgan sohalarini tushunishga yordam berish. Buning asosida yaxshilash rejasi tuziladi va umumiy sifatni oshirish, xalqaro akkreditatsiya va TOP-300 reytingiga kirish maqsadlarida choralar ko'riladi.

6.3. O'z-o'zini baholash davriyligi va bosqichlari

O'z-o'zini baholash tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni aniqlash hamda sifatni uzluksiz takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Mazkur baholash kamida ikki yilda bir marta o'tkazilishi belgilangan bo'lib, xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik jarayonida uni har yili amalga oshirish ham mumkin. Bu esa tashkilotning ichki tizimlarini muntazam ravishda tahlil qilish, xalqaro standartlarga moslashish va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

O'z-o'zini baholash jarayoni bir necha izchil bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvalo, birinchi bosqichda baholash jarayoni puxta rejalashtiriladi. Bu jarayonda maqsad va vazifalar belgilanadi, mezonlar aniqlanadi hamda mas'ul ijrochilar tayinlanadi. Ikkinchi bosqichda bevosita baholash ishlari olib borilib, mavjud holat chuqur tahlil qilinadi, kuchli va zaif tomonlar aniqlanadi. Uchinchi bosqichda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyatni yaxshilash bo'yicha aniq choralar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Nihoyat, to'rtinchi bosqichda sifatni doimiy ravishda yaxshilash mexanizmlari yo'lga qo'yilib, erishilgan natijalar muntazam monitoring qilinadi.

VII BOB. XODIMLARNING LAVOZIM YO'RIQNOMALARI

7.1. Bo'lim boshlig'ining funksional vazifalari

- ❖ Bo'lim faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Oliy ta'lim, fan va

- innovatsiyalar vazirligining Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti va TDSHU rektori buyruq va ko'rsatmalari asosida tashkil etish;
- ❖ bo'lim faoliyatini tashkil etish;
 - ❖ bo'limning joriy va istiqbol ish rejalarini ishlab chiqish;
 - ❖ bevosita universitet rektoriga va undan keyin Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamentiga taqdim etiladigan ma'lumotlarning haqqoniyligiga javob berish;
 - ❖ universitetda ta'lim sifatiga oid qabul qilingan qarorlarning yetarli darajada ijrosi ta'minlanmaganligi aniqlanganda, ma'lumotlarni universitet rektoriga kiritish;
 - ❖ universitet reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda, o'tkaziladigan akkreditatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish;
 - ❖ universitet Kengashida, davra suhbatlari va anjumanlarda bo'lim tomonidan ta'lim sifatini oshirishga oid amalga oshirilgan ishlarni o'rganish va monitoring natijalari to'g'risida ma'lumotlar berib borish;
 - ❖ universitet milliy va xalqaro akkreditatsiya natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish;
 - ❖ ta'lim sifatini ta'minlay oladigan professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatli o'qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (obyektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish;
 - ❖ professor-o'qituvchilarning dars o'tish sifatini va KPI ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish;
 - ❖ TOP-300 universitetlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish r-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;
 - ❖ bo'lim xodimlarining lavozim vazifalari bo'yicha topshiriqlarni bajarish natijalariga ko'ra ularni rag'batlantirish yoki intizomiy chora ko'rish haqida Universitet rahbariyatga o'rnatilgan tartibda taklif va tavsiyalar kiritish;

7.2. Bo'lim bosh mutaxassisining funksional vazifalari

- ❖ O'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta'limga oid boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti va TDSHU rektori buyruq va ko'rsatmalari hamda bo'lim boshlig'ining topshiriqlari asosida tashkil etish;

- ❖ bo‘lim zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun universitet tarkibiy tuzilmalaridan vazifalari doirasidagi zarur ma’lumotlar va materiallarni olish;
- ❖ o‘quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilganligi va HEMIS, MOODLE tizimlaridan foydalanish samaradorligini o‘rganib borish. Jumladan, axborot tizimiga ma’lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda kiritilganligi;
- ❖ mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnoma yoki uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo‘yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash);
- ❖ talabalar bilimni nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlanganligi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aniqlash;
- ❖ professor-o‘qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o‘rganish;
- ❖ mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnoma yoki uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo‘yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash).
- ❖ bevosita bo‘lim boshlig‘iga, universitet rektoriga va undan keyin Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash agntligiga taqdim etiladigan ma’lumotlarning haqqoniyligiga javob berish;

VIII BOB. YAKUNIY QOIDALAR

8.1. Nizomni qo‘llash

Ushbu Nizom qoidalari TDSHU barcha tuzilmaviy bo‘linmalari va xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi.

8.2. Bo‘limni qayta tashkil etish va tugatish

Bo‘limni tugatish yoki qayta tashkil etish Rektor buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

8.3. Nizomning kuchga kirishi

Ushbu Nizom TDSHU Kengashi yig‘ilishida muhokama qilinib tasdiqlanganidan boshlab huquqiy kuchga kirgan hisoblanadi.

8.4. Nizomga o‘zgartirishlar kiritish

Ushbu Nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar TDSHU Kengashi qarori asosida kiritilishi mumkin. O‘zgartirishlar Universitetning istiqbolli rejalari va Kompleks yo‘l xaritasining yangilanishlari bilan muvofiqlashtirilib kiritiladi.

Mazkur nizom Universitet Kengashining 2025-yil 4-oktabridagi 2-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va tasdiqlangan kundan boshlab qonuniy kuchga kirgan deb hisoblanadi.

Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i



S.X. Maxkamova

Тошкент давлат шарқшунослик университети

СИНОВ ДАРС ТАҲЛИЛИ

Ўқитувчининг Ф.И.Ш.: _____

Илмий даражаси _____ лавозими _____

Факультет: _____

Кафедра _____

Фан номи: _____

Дарс мавзуси _____

Сана: _____ вақт _____

№	Миқдор кўрсаткичлари номи	Баҳо, эътироз ва тавсиялар
1.	Аудитория билан мулоқоти	
2.	Нотиклик санъати	
3.	Амалий аҳамияти	
4.	Педагогик маданияти (ташқи кўриниши, нутқ саводчилиги, педагогик такт ва бошқалар)	
	Сифат кўрсаткичлари номи	
5.	Материаллар тузилиши ва уларни тақдим қилишнинг оригиналлиги	
6.	Масаланинг қўйилиши	
7.	Дарс бериш услуби ва талабаларни мавзунини ўзлаштиришга жалб этиш усуллари (анъавий - ноанъавий)	
8.	Талабаларга тавсия этиладиган мустақил иш шакллари	
9.	Дарс мавзусининг ишчи ўқув дастурига мослиги	

10.	Тарқатма материалларнинг мавжудлиги ва уларнинг шакли	
11.	Таълимнинг техник воситаларидан фойдаланилиши	
12.	Асосий ва қўшимча адабиётларнинг тақдим этилиши	

Умумий хулоса:

Дарсни кузатувчилар:

ТСНҚБ бошлиғи

С.Маҳкамова

Декан

Кафедра мудири

Эксперт

Дарсни олиб борган ўқитувчининг имзоси: _____

“ _____ ” _____ 2025 й.